

VOLUME-1, ISSUE-11

CHET TILINI O'RGANISHDA ELEKTRON LUG'ATLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Jo'raqulova Shoxzoda Toir qizi

Farg'ona davlat universiteti, Ingliz tili va adabiyoti fakulteti
3- bosqich talabasi

Umarova Muhayyo Turg'unboy qizi

Farg'ona davlat universiteti, Ingliz tili va adabiyoti fakulteti
amaliy ingliz tili kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya : Mazkur maqolada chet tillarini o'qitishda va uni o'rganishda elektron lug'atlardan foydalanishning o'rni, uning samaradorligi, qulayligi, afzalliklari va mamlakatimizdagi tutgan o'rni haqida batafsil so'z boradi. Shuningdek, xorijiy tillarni o'rganish nafaqat ularda yangi so'zlarni o'rganish balkim, ularni so'zlashish jarayonida ham bevosita qo'llay olish, yangi ma'lumotlarni taxlil qilib ular orqali o'z fikrlarini bayon eta olish uchun ham juda manfaatlidir. Ushbu maqolada elektron lug'atlarning o'rganuvchilarning o'rganish jarayonida turgan o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so`zlar: zamonaviy texnologiyalar, elektron lug'atlar, qiziqarli va foydali dasturlar, til ko'nikmalar, mantiqiy fikrlash

Bugungi kunda nafaqat O'zbekistonda balki, butun yer yuzida chet tillarini o'qitishga va ularni o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qaroriga muvofiq mamlakatimizda bir qator ishlar amalga oshirildi. Ta'lim dargohlarida chet tilli xonalarini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlashga ham alohida e'tibor qaradildi. Til o'rganishning asosiy to'rt ko'nikmasini (tinglab tushunish-listening, gapishtish-speaking, o'qish-reading hamda yozish-writing) rivojlantirish uchun texnik vositalar taqdim etildi. Qolaversa, har bir o'rganuvchi va o'rgatuvchi uchun qulayliklar ham yaratib berildi, nafaqat maktab o'quvchilar balkim, oliy ta'lim talabalari uchun ham xorijiy tillarni o'rgatish yo'lga qo'yildi. Ta'lim muassalarida chet tillarni o'rganishga ham bosqichma bosqich amalga oshirildi, har bir fan yo'nalish talabalariga xorijiy tillarni tez va oson o'rganishda texnologiyalar va elektron lug'atlardan foydalanishning samaradorligi ortib bormoqda. Chunki, dunyodagi ko'plab yangiliklar va xabarlarni tushuna olish va ular haqida mushohada qilish uchun bu tillarni foydasi beqiyosligi muhim o'rinn tutadi. Shuningdek, ushbu maqolada xorij tillarini o'qitishda elektron lug'atlardan foydalanish

VOLUME-1, ISSUE-11

istiqbollari va uning samoradorlik tendensiyalari va hayotimizda tutgan o'rni haqida fikrlar keltirib o'tilgan.

Har qanday sohani xoh u til sohasi bo'lsin xoh boshqa, o'rganuvchini qiziqish va diqqatini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi yuqori. Zamonaviy innovatsion texnologiyalar inson hayotining ko'plab sohalarini, jumladan, ta'limni soddalashtirish va uning sifatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Talabalari ingliz tilini o'rganishda, o'z so'z boyliklarini oshirishda shuningdek, ta'lim olayotgan sohalariga oid xorijiy maqola va ma'lumotlarni erkin tushunishda zamonaviy elektron lug'atlardan foydalanishlar shubxasiz. Olib borilayotgan tadqiqotlarga asosan yer yuzing ko'plab xorijiy til o'rganuvchilari elektron lug'atlardan foydalanishni afzal ko'rishlar yaqqol sezilib tursa ham, hali hamon kitob ko'rinishidagi lug'atlarda foydalanish ko'proq samarali ekanligi ya'ni, bir so'zni qidirish mobaynida uning yondosh ma'nolari, grammatikada qo'llanilishi va shu jumladan unga ma'nodosh (synonym) va zid ma'noli (antonym) so'zlarni ham qo'shimcha tarzda o'rganib olishlari mumkin, shu o'rinda mantiq fikrlashni ham oshishiga yordam beradi. Albatta, elektron lug'atlarda an'anaviy qog'oz lug'atlardan ko'ra kengroq imkoniyatlarga aks etgan. Shu o'rinda o'rganuvchilar orasidagi fikrlar, ya'ni elektron lug'atlarni afzal ko'rishlar va uning imkoniyatlarini ham sanab o'tishdi:

- vaqt tejamkorligi ya'ni elektron lug'atlarning ishlash holatining yuqoriliklari ularning vaqtini tejashta yordam beradi. Kitob holidagi lug'atlardan bir so'z qidirish uchun sarflangan vaqtidan, elektron lug'atlardan bir necha so'zlarni o'rganish mumkin.
- ko'rgazmalilik ya'ni elektron lug'atlar yordami qidirish bo'limiga o'zingiz uchun notanish so'zni yozish orqali uning obyektiv ko'rinishini ham ko'ra olasiz. Bu yangi so'zni eslab qolish uchun yordam beradi.
- to'plam yaratish ya'ni elektron lug'atlar orqali o'zingiz uchun shaxsiy baza ham yaratib olishingiz mumkin. Bu har safar yangi o'rgangan so'zlaringizni ombor sifatida jamlab ularni takrorlappingiz uchun imkoniyat yaratib beradi.
- talaffuz qilish ya'ni zamonaviy elektron lug'atlar hozirda talaffuz qilishga (pronunciation) ham alohida e'tibor qaratilgan. Bu funksiya yordamida o'rganuvchi yangi so'zlarni qay tariqa talaffuz qilishni o'rganib olishlari mumkin.
- kataloglar ya'ni elektron lug'atlarning bu funksiyasi ham mavjud bo'lib unda: grammatika (grammar), farqlar (differences), birikmalar (collocations), metaforalar (metaphors), so'zlashish (speaking) kabi bo'limlarning bor ekanligi ham yangi so'zlarni o'rganishning samaradorligini oshirib beradi. Shuningdek, foydalanish uchun tanlanayotgan lug'atlarning qay darajada sifatli ekanligi ham muhim. Ko'plab dasturlar yordamida yaratilgan elektron lug'atlar, WISDOM, LONGMAN, DICTIONARY-

VOLUME-1, ISSUE-11

MERRIAM- WEBSTER , WORDUP, OXFORD DICTIONARY, MACMILLAN DICTIONARY, CAMBRIDGE DICTIONARY va shu kabi ko'plab elektron lug'atlar mavjud bo'lib o'rghanuvchilar o'z estetik didi va dunyo qarashiga qarab turli lug'atlardan foydalanishlari ham mumkin. Ularning imkoniyat darajasi va keng ko'lamli funksiyalari har bir o'rghanuvchiga manzur keladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, „Til- millat ko'zgusi” har bir o'rghanuvchi chet tillarini o'rghanar ekan, o'rghanayotgan tilining madaniyati va o'sha jamiyat insonlarining qadriyatlarini ham o'rgana oladi. Bu jarayon nafaqat bir tilni o'rghanish balkim fikrlash, tanqid qila olish kabi qobilyatlarni ham tabiiy ravishda rivojlantira oladi. Qolaversa, xorijiy tillarni chuqur o'rghanishda har bir ko'nikmalar muhim ahamiyat kasb etganidek ularni elektron lug'atlar vositasida o'rghanish ham samarali ham foydali bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jalolov J. "Chet tili o'qitish metodikasi", Toshkent. 2012
2. O'. Hoshimov, I. Yoqubov. "Ingliz tili o'qitish metodikasi" (o'quv qo'llanma) Toshkent: "Sharq" nashiriyoti, 2003.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy tillarni o'rghanishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori 19.05.2021 yildagi 312-son.
4. Jamol Jalolov "Chet til o'qitish metodikasi" Chet tillar oliy o „quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik Toshkent – 2012.
5. Bekmuratova U.B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent - 2012 yil.
6. Larsen Freeman Diane. 2000. "Techniques and principles in language teaching" Oxford university press.
7. Shavkatovna, A. N., & Sharifovna, S. M. (2022). The Role of Electronic Resources in English Language Teaching. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences, 2(4), 79-83.
8. Akhadalievich, A. K., & Nozimakhon, G. (2022, November). The role of needs analysis in language teaching. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 67-71).
9. Umarova, M. (2022, November). Talabalarning SoZlashuv Qobilyatini Oshirishda Visual Vositalardan Foydalanish Samaradorligi. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 164-166).